

EDUCATING YOUNG PEOPLE IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM

**Deputy head of the Faculty of military education of the tdpu named after
Nizami**

Mirzayev Timur Alfirović

Annotation. Military patriotic education gives a good result only when it is carried out in a picture inextricably linked with physical education. Therefore, military patriotic education cannot be imagined without physical education.

Keywords. Homeland, youth, military, upbringing.

O‘zbekiston Respublikasi tinchlik siyosatini olib borish bilan birga o‘z zimmasiga fuqarolar havfsizligi, tinchlik va barqarorligini ta‘minlash vazifalarini oladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga ko‘ra mudofaaga nisbatan hech kim daxl qilolmaydigan huquqni amalga oshirmoqda, aqliy etarlilik darajasida davlat harbiy va mudofaa qudratini ta‘minlamoqda.

Yoshlarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilish uchun tayyorlash Davlat miqyosidagi vazifa. SHu vazifani hal qilishda chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik, jumladan fuqaro muxofazasi bo‘yicha tayyorgarlik o‘quv dasturidagi majburiy fan bo‘lib, umumta‘lim o‘quv muassasalarida, o‘rta maxsus va o‘rta kasb – hunar ta‘limi muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilari tomonidan bitirish yili arafasida kurslardan yoki sinflardan boshlab o‘tilishi O‘zbekiston Respublikasi „Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida“gi qonunining 13 – moddasiga belgilab berilgan. Ushbu masalaning muhimligi e‘tiborga olingan holda Oliy ta‘lim bilim yurtlaridagi „CHaqiriqqacha harbiy ta‘lim“ yo‘nalishi, ya‘ni bo‘lajak „CHaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik“ o‘qituvchilarini tayyorlashdagi asosiy fanlardan biri hisoblangan „Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi“ fani kiritilgan.

YOshlar – Vatanimizning, millatimizning kelajagidir. Vatanimiz taqdirini ularga ishonib topshirar ekanmiz, avvalo ular zimmalariga yuklatilayotgan murakkab va mas‘uliyatli vazifani butun mohiyati ila chuqur anglashlari, unga o‘zlarini hissalarini qo‘shishlari lozim. Zero, Vatanni sevish, unga mehr-muhabbat qo‘yish bevosita har kimning shu yurt ravnaqi yo‘lida amalga oshirayotgan bunyodkorona ishlari bilan belgilanadi.

Milliy o‘zlikni anglashning rivojlanishida milliy vatanparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan, teran fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash katta ahamiyatga egadir. SHuning uchun Vatan himoyasiga tayyorlanayotgan yoshlarimizning har biri yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi shart. Vatanparvarlik – yuksak insoniy fazilat hisoblanadi. Vatanparvarlik komillikning eng yorqin jihatlaridan biridir. SHuning uchun ham Hadisi SHarifda «**Vatanni sevmoq - iymondandur**» deb da‘vat qilinadi.

Vaholanki, o‘tmishda jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan xalqning bugungi avlodlari, o‘z meroslarining jahon xalqlari tomonidan e‘tirof etilishini

ta'kidlab o'tish joizdir, zero ularda bu kabi his – tuyg'ular milliy g'urur hamda ruhiy barkamollikka etaklaydi, milliy o'zligini anglashga intilishini kuchaytiradi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jismoniy tarbiya bilan uzviy bog'liq suratda olib borilganidagina yaxshi natija beradi. SHuning uchun harbiy vatanparvarlik tarbiyasini jismoniy tarbiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Sovuqqa va issiqqa bardoshli bo'lish, kasalliklarga tezda berilmaslik, qiyinchiliklarni engish, irodalilik. sabot – matonatlik, tez va chaqqon harakat qila bilish kabi Vatan mudofaachisiga xos fazilatlarni talaba – yoshlar va o'qituvchilarda rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sport o'inlarining roli benihoyat kattadir.

YOshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan mudofaasiga jismonan va ma'naviy jihatdan tayyorlash zarurligi hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Umumta'lim o'quv muassasalarida, o'rta maxsus va o'rta kasb – hunar ta'limi muassasalarida o'quvchilarni, shu jumladan oliy ta'lim dargohlarida ta'lim olayotgan talaba – yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tayyorlash endilikda ta'lim – tarbiya ishlarining barcha tizimlari orqali amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, Vatanga nisbatan chinakam sadoqat uni himoya qilishga ham qodir bo'lishni talab etadi. O'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barcha turdagi faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasalarining asosiy o'rin egallashi darkordir.

1. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mazmun mohiyati.

Talaba – yoshlar harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy bilimlariga ega bo'lishi, ularni har taraflama harbiy xizmatga tayyorlash va Mustaqil O'zbekiston ravnaqini himoya qilish bo'yicha o'z burchini ado etish – o'quv yurtlari pedagogik jamoalarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Uni muvaffaqiyatli hal etishda "Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi" fani yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o'quvchilarni xizmat qilishga ma'naviy – siyosiy, psixologik va jismoniy jihatdan tayyorlashning tashkili, mazmuni, shakllari va uslublarini tashkil qiladi.

"Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi" fanining asosiy vazifalari quyidagilar:

Birinchidan, o'quv yurtlarida o'rganiladigan boshqa fanlar bilan bog'langan holda talabalarni milliy vatanparvarlik ruhida o'z Vatani himoyasiga qo'lida qurol bilan chiqishga doim tayyor bo'lishga tarbiyalash;

Ikkinchidan, talabalarda pedagogik xislatlarni rivojlantirish, yangi jamiyatning faol, ongli quruvchilari, milliy mustaqillik g'oyalariga sadoqatli, mehnatkash, jasoratli va o'z Vatani uchun hayotini beradigan insonlarni etishtirish;

Uchinchidan, talabalarni "Harbiy vatanparvarlik tarbiya" masalari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlari bilan qurollantirish, ularda o'rta o'quv muassasalar, litseylar, kollejlardagi «CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik» o'qituvchisiga xos bo'lgan lavozimda o'quv-tarbiyaviy ishning tashkil etilishi va o'tkazilishi bo'yicha ko'nikma va qobiliyatlarini shakllantirish.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha masalalar boshlang'ich harbiy tayyorgarlik fanni o'rganish natijasida talabalar quyidagilarni bilishi kerak:

<https://conferencea.org>

April 10th 2023

- o'rta maxsus va kasb – hunar ta'lim o'quv yurtlaridagi „YOshlarning chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarligi” mashg'ulotlari davomida va darsdan tashqari tadbirlr, shakl va metodlari, mudofaa va sport ishlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasini;

- "Vatanparvar", "Salomatlik" normalari va "SHunqorlar" harbiy sport o'yinini tashkil qilish va o'tkazishni, o'quv-dala mashg'ulotlarini o'tkazish, „YOshlarning chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarligi” fanining tugashiga bag'ishlangan bayramlarni o'tkazishni.

"Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi" fanini o'rganish natijasida talabalar quyidagilarni bajara olishi zarur:

- o'quvchilar harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha o'rta maxsus talim o'quv yurtlaridagi tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, ya'ni halqimiz jangovar va mehnat shuhratiga sazovor bo'lgan joylariga safarlar uyushtirish;

- urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar tashkil qilish, Qurolli Kuchlar askarlari bilan uchrashuvlar o'tkazish;

- harbiy vatanparvarlik mavzusi bo'yicha nazariy konferensiyalar o'tkazish, harbiy Oliy bilim yurtlarida o'qish uchun nomzodlar tanlash va tayyorlash;

- harbiy ish asoslarini o'rganish uchun harbiy to'garaklar tashkil qilish.

Foydalangan adabiyotlar

1. Vafokulovich, B. U. (2022). MECHANISMS FOR INCREASING THE NOISE RESISTANCE OF ANALOG BLOCKS OF INFORMATION MEASURING SYSTEMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(5), 627-630.
2. Vahofuqulovich, B. U. (2021). ALGORITHMS AND CIRCUITRY METHODS FOR INCREASING THE NOISE IMMUNITY OF ANALOG BLOCKS OF INFORMATIONMEASURING SYSTEMS.
3. Yigitaliyevich, E. I. (2021, May). THE IMPORTANCE OF INCREASING AND DEVELOPING THE KNOWLEDGE OF STUDENT MILITARY EDUCATION STUDENTS. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 98-99).
4. Yigitaliyevich, L. C. E. I. (2022). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF PRE-SERVICE MILITARY EDUCATION STUDENTS BASED ON INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 266-269.\
5. Yigitaliyevich, E. I. (2021, November). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCES OF STUDENTS OF MILITARY EDUCATION ON THE BASIS OF INFORMATION AND

- COMMUNICATION TECHNOLOGIES. In *Archive of Conferences* (pp. 11-13).
6. Мирзаев, Ш. Т. (2022, September). Собенности Методики Работы По Военно-Патриотическому Воспитанию Молодежи. In *Conference Zone* (pp. 49-51).
 7. Turdibaevich, M. S. (2022). THE ROLE AND ROLE OF PUBLIC SCHOOLS IN THE PREPARATION OF SENIOR STUDENTS FOR MILITARY SERVICE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 277-280.
 8. Turdibaevich, M. S. (2021, May). NATIONAL ARMY-A HIGH EXAMPLE OF PATRIOTISM. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 102-103).
 9. Mirzaev, S. T. (2020). МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ВЫНОСЛИВОСТИ ПЛОВЦОВ. *Theoretical & Applied Science*, (11), 111-115.
 10. Хонимкулов, А. (2022). ЧАҚИРИҚҚАЧА ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ ЙЎНАЛТАЛАБАЛАРИДА ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ ТУЗИЛИШИ ВА МАЗМУНИ. *Science and innovation*, 1(C7), 166-170.
 11. Rahimkulovich, A. K. (2022, January). ЧАҚИРИҚҚАЧА ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ YO ‘NALISHI TALABALARINI ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИГИ RUHIDA ТАРБИЯЛАШНИ ТАКОМИЛЛАСHTIRISH. In *Conference Zone* (pp. 66-68).
 12. Rahimkulovich, A. K. (2022, January). ЧАҚИРИҚҚАЧА ҲАРБИЙ ТАЪЛИМ YO ‘NALISHI TALABALARINI ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИГИ RUHIDA ТАРБИЯЛАШНИ ТАКОМИЛЛАСHTIRISH. In *Conference Zone* (pp. 66-68).
 13. Rahimkulovich, A. K. (2021, May). DEVELOPMENT OF MILITARY PATRIOTIC TRAINING OF STUDENTS OF PRE-SERVICE MILITARY EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 32-33).
 14. Khonimkulov, A. (2020). MILITARY-PATRIOTIC TRAINING OF STUDENTS IN HIGHER EDUCATION EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(4).
 15. Abduxamidovich, U. A. (2022). DEVELOPMENT OF PATRIOTIC COMPETENCIES IN STUDENTS AS A SOCIAL AND PEDAGOGICAL NECESSITY. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 5, 81-85.